

**YUKSAK MA'NAVIYATLI SHAXSNI SHAKLLANTIRISHNING
NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-G guruh talabasi

Karimova Shahnoza

3-L guruh talabasi

Erejepova Gulmiyra

3-L guruh talabasi

Bayjigitova Ulbosin

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish masalalari, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy ma'naviy urf-odat va an'alariga asoslangan holda tashkilotchilik, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish to'g'risida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *yuqori ma'naviyat, intizom maqsadi, yetuk odamlarni tarbiyalash, milliy qadriyatlar, shaxsiy rivojlanish, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim tug'risida»gi Qonuni, «Kadarlar tayyorlash milliy dasturi», «O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar Strategiyasi», printisplar, ta'lim va tarbiya.*

Annotation: *In this article, the issues of forming a highly spiritual person, the development and implementation of organizational, pedagogical forms and tools based on the rich national spiritual customs and traditions of the people in the spiritual and moral education of the young generation are discussed.*

Key words: *high morale, goal of discipline, education of mature people, national values, personal development, Law of the Republic of Uzbekistan "On Education", "National Program of Training of Cadres", "Republic of Uzbekistan Action Strategy on five priority areas of development", principles, education and upbringing*

Bizning ona zaminimiz bo'lgan O'zbekistonimiz 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishdi va shu kundan e'tiboran yurtimizda yangidan yangi islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ta'lim sohasida yangi poydevorlar qo'yildi, o'quv jarayonini rivojlantirish uchun bir qator yangi ishlar amalga oshirildi. Ular orasidan "Ta'lim to'g'risida" gi qonun, "Ta'limning milliy an'analari" ning yaratilishi, ta'lim tizimining tubdan yangilanishi, Sobiq SSSR davridagi tuzum kabi eskirgan narsalardan butunlay ozod qilinishi, rivojlangan demokratiya darajasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash kabilar o'rin oladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'z nutqida va bir qancha asarlarida mustaqillikka erishishimizning yo'llarini va yo'nalishlarini aniq ko'rsatib bergan. Birinchi Prezidentimizning "Mustaqillik va ma'naviyat", " O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy kelajagining asosiy yo'nalishlari", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida", " Barkamol

avlod orzusi" kabi asarlarida jamiyatimizning ma'naviy yangilanishi hamda rivojlanishining asosiy negizlarini bayon qilgan. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish masalalari nazarda tutiladi. Ushbu natijaga erishish uchun ta'lim-tarbiya jarayonining birligini ta'minlash, tarbiya jarayonining muntazamligini chuqur o'rganish va bugungi kun talablariga javob beradigan yosh avlodni tarbiyalash usullarini nazorat qilish lozim. Shu o'rinda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" nima degan savol tug'ilishi tabiiy. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" 1997- yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan. Dasturning asosiy maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan to'laligicha xalos etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi milliy tizimni yaratishdan iborat. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuniga muvofiq holda tayyorlangan.

Yetuk avlod tarbiyasi ko'p jihatdan biz ya'ni bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy ishlarini tashkil etish qobiliyatimizga bog'liq. Buning uchun biz tarbiyaviy ish metodologiyasiga tegishli bilimlarni o'z vaqtida o'zlashtirib borishimiz, ushbu sohada tajriba va ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ushbu vazifani bajarish uchun, albatta, bugungi kun talablari asosida o'quv qo'llanmalari ishlab chiqilishi talab etiladi.

Yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish to'g'risida gap ketganda, avvalo, ma'naviyat tushunchasiga ta'rif berib o'tishimiz kerak. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida ma'naviyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir". Darhaqiqat, ma'naviyat insonni ruhan poklanishga chorlaydi. Ma'naviyatni shakllantirishda eng yuqori o'rinlardan birini ta'lim va tarbiya egallaydi. Albatta, ta'lim-tarbiya - bu ongning mevasidir, ammo shu bilan birga ong darajasi va uning rivojlanishini, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantirish va boyitishni belgilaydigan eng muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun, ta'lim-tarbiya tizimini va ongni o'zgartirmasdan ma'naviyatni rivoltantirib bo'lmaydi.

Ta'lim va tarbiya haqida gap borar ekan, uning o'quv dargohlarida kelajak avlodning poydevorlari hisoblanmish yoshlarga berilishini, boshqacha aytganda, xalqimizning keyingi kelajagi yoshlarning qo'lidaligini hisobga olgan holda, ularga maksimum darajada ta'lim-tarbiya berishimiz darkor. Biz bo'lajak Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ayniqsa, ta'lim-tarbiya masalalariga e'tibor berishimiz darkor. Maktabda faqat ta'lim beriladi, bola tarbiyani oilasidan oladi deya qo'l qovushtirib o'tirish bizga yarashmaydi. Ta'lim va tarbiya to'g'risida gap borar ekan buyuk ma'rifat darg'alaridan biri Abdulla Avloniyning: "Tarbiya

biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir",- degan chuqur ma'noli so'zlarini keltirib o'tmasdan o'zga ilojimiz yo'q. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi

Maktabda o'quvchilarga tarbiya sinf rahbarining ishlari orqali beriladi. Xususan, o'quvchilarga tadbirlar, turli xil uchrashuvlar, tanlovlar va boshqa o'yinlar orqali o'quvchilarga ta'lim-tarbiya beriladi. Natijada o'quvchilarning fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Boshlang'ich sinf maktab ta'limining dastlabki bosqichi bo'lib, bu yerda bolalar o'qituvchining rahbarligi ostida ta'limga birinchi qadamni qo'yadilar. O'quv jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni oladi. O'qituvchi sinf bilan yolg'iz ishlaydi va ko'pincha tarbiyachi sifatida ish olib boradi. O'qituvchilik xizmati bolalarga bo'lgan munosabatda, katta mehr va g'amxo'rlik bilan xarakterlanadi. Bular juda katta talabchanlik bilan olib boriladi. O'quvchilar o'rtasida to'g'ri munosabatlarni o'rnatish va o'quvchilarning o'sishi va rivojlanishiga qarab tarbiyalash sinf rahbari uchun juda katta ahamiyatga egadir. Bu yerda o'qituvchilar o'quvchilarga pedagogik talablarni taqdim etish imkoniyatiga ega, ota-onalar, kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachilari jamoatchilik bilan doimiy aloqa qilib boradi.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishda, ta'lim va tarbiya g'oyatda muhim ahamiyatga egadir. Uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida inson «rivojlanishning ijtimoiy vaziyatlariga», ya'ni jamiyatda dominantlik qilayotgan qadriyatlarga, normalarga, qoidalarga, xulq - atvor andozalariga bog'liq bo'ladi. G'azal mulkning sultoni hisoblangan Hazrati Alisher Navoiy bobomiz o'zining shoh asari bo'lgan "Xamsa"ning 3-dostonini " Farhod va Shirin" deb nomlab, Farhod timsolida yuksak ma'naviyatli shaxsni ya'ni komil inson siymosini gavdalantiradi. Agar biz shu asarni o'qisak, yuksak ma'naviyatli shaxs haqida yana bir qancha axborotlarga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. 1998
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent.: Ma'naviyat, 2008.
3. Bepal'ko "Slagaemoe pedagogichskoy texnologii" 1990.M. 4. Mavlonova R.A., To'raev O.T., Xasanboeva O, Xolikberdiev K.M. -«Pedagogika» T., «O'qituvchi » - 1998 i. 5. Musurmonova O. «Oila ma'naviyati milliy g'urur». T. 1999.